

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. №

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 12 - 18 - dekabr N:50 (66539)

TO'QQIZ YOSHLI CHEMPIONLAR

Jajji chempionlarimiz yo'liga intiq boqarkanmiz, qalbimizni allanechuk quvonch va hayajon tuyg'ulari qamrab olganini his qildik. Qiziq, g'alaba qozongan bolalar-u, biz kattalar hayajonlanib ketyapmiz. Ularga atalgan dasta-dasta gullarimizni tekislab, iliq va samimiy tilaklarimizni, tabriklarimizni xayolan takrorlab qo'yyapmiz...

Tun sukunatini zalvorli ovozi

karatechilari Brus Li, Chak Noris hamda Gladiatorlar jang qilgan maydonlarni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bizga shunday imkoniyatlar yaratgani uchun yurtboshimizdan minnatdorman. Ularning bu g'amxo'rliklariga javoban musobaqalarda faqat g'alaba qozonishga, yurtimizga shodashoda medallar bilan qaytishga intilyapman. Safarlarda yurib, o'zga yurtlarni O'zbekistonimiz

uzoq safarga ilk bor chiqishi ekan. Shundanmi, samolyotning zinalariga qadam qo'yar ekan, uni quvonch ko'z yoshlari bilan kuzatib qolayotgan



Kuni kecha poytaxtimiz aeroportida Italiyadan medallar shodasi bilan qaytgan 9 yoshli chempionlarimiz, sharafiga ko'ngillarni faxr va iftixorga to'ldirib, karney-surnay sadolari yangradi. Bolajonlarning bu yutuqlarini shunchaki g'oliblik emas, qahramonlik deb atasak ham xato bo'lmaydi. Dunyoning 30 dan ortiq davlatidan 800 nafar eng kuchli karatechilar qatnashgan Viaredjo shahrida bo'lib o'tgan jahon chempionatining an'anaviy bahslarida qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritishning o'zi bo'lmaydi-da, axir!

bilan buzgancha aeroport uzra pastlagan samolyot nihoyat yerga qo'ndi. Undan g'oliblik nashidasi kulcha yuzlariga yarashgan chempionlarimiz birin-ketin tushib kela boshlashdi. Hammalari xursand va xotirjam edilar, xuddi shunday bo'lishi kerakdek.

Fursatdan foydalanib, ulardan ayrimlarini suhbatga tortdik:

-Men O'zbekistonning baxtli bolasiman,- deydi o'zini Asrorjon Ablfatov deb tanishtirgan jajjigina bolakay.- Chunki hali yosh bo'la turib dunyoning juda ko'plab mamlakatlarini ko'rishga ulgurdim. Dunyoning mashhur

bilan solishtirdim. Boshqa shaharlar ham juda chiroyli ekan. Lekin b a r i b i r yurtimizga yetmaydi.

-Asrorjon, g'oliblik shohsupasiga chiqqaningizda xayolingizdan nimalar o'tdi?

-Mening sharafiga madhiyamiz yangraganida ko'z yoshlarimni to'xtatolmay qoldim. Shu damda bog'chaga boradigan ukam Fayozbekning, «menam chempion bo'laman» degan gaplarini esladim.

«Bu jahon chempionati, medal olish osonmas. Astoydil harakat qilsang, albatta g'olib bo'lasan», deya oq yo'l tilab safarga kuzatgan ustozimiz Nurxon aka N a f a s o v n i n g g'alabamdan mamnun bo'lgan chehralarini ko'z oldimga keltirib, hayajonlanib ketdim. Endi mening oltin medallarim soni 5 taga yetdi. Ular nafaqat meniki, balki mehribon murabbiylarimniki, otamonamniki, O'zbekistonimniki hamdir.

**«MEN
O'ZBEK
O'G'LONIMAN»**

Yana bir jajji chempionimiz Boburxon Ismoilovning

ota-onasining bag'riga otilgisi keldi. Lekin o'zini qo'lga oldi. Axir u endi yosh bola emas-ku!

Qolaversa, o'ynagani emas, j a h o n chempionatida ishtirok etish uchun ketyapti...

Sport odamning irodasini chiniqtiradi, e'tiqodini mustahkamlaydi, deganlari rost ekan. Avvaliga shunday katta musobaqaning nufuzi endigina 9 yoshni qoralagan Boburxonni biroz cho'chitgandi. Ustozlarining, otamonasining unga bildirgan ishonchlari dalda bo'ldimi, g'oliblik sari astoydil intildi va yurtimizga medallar bilan qaytdi. Boburxon qo'lga kiritgan yutuqlari boisini barvaqt sport bilan shug'ullana boshlaganida deb biladi. Otasi Ikromjon aka uning jajji qo'lhalaridan yetaklab, Qarshidagi bolalar va o'smirlar sport maktabiga olib borganida atigi 6 yoshda edi-da. Murabbiyi Farhodjon akasidan karatening dastlabki saboqlarini qunt bilan o'rgandi. Keyinchalik dadasining ishi yuzasidan oilasi bilan Toshkentga ko'chib kelgan Boburxon uchun sport olamining eshiklari birin-ketin ochila boshladi. 2005-yilda bo'lib o'tgan musobaqadagi ilk g'alabasi uni Nurxon Nafasovdek ta'hiqli sportchiga tanitdi. O'shanda mashhur karate ustasi unga: «Endi sen Otabek Qosimovdek mohir murabbiyga shogird bo'lasan» degandi. Mana ikki

yildirki, Boburxon karate bilan jiddiy shug'ullanib, bir necha musobaqalarning mutloq g'olibiga aylanishga ham ulgurdi...

Italiyadagi bahslar jajji chempion uchun oson kechmadi. Finalgacha u bellashgan barcha raqiblari Boburxonga tengdosh bo'lsalarda, jismari undan ancha katta edilar. Lekin gap g'avdada emas, kuch va mahoratda ekanligini yaxshi bilgan jussasi kichkinagina Boburxon ulardan cho'chimadi. Kata bahslaridagi bir oylik tinimsiz mashg'ulotlari, qolaversa, o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usi o'z samarasini berdi. Boburxon shohsupaning birinchi o'rnini egalladi. Aeroportda uni intiq kutgan yaqinlariga medallari shodasini tuhfa etdi.

-Medallaringiz jarangidan biz ham faxrlanyapmiz. Aytinch, sportchi bo'lish yaxshi ekanmi?

-Juda yaxshi ekan. Dadamning aytishlaricha, avvallari 9 yoshli bolakayning chet eldagi nufuzli musobaqada ishtirok etishi ertakdek bir gap bo'lgan ekan. Hozir esa bu asl haqiqat! Sportning orqasidan jahon kezyapmiz. Uning sharofati bilan yurtimizni, millatimizni dunyo taniyapti. Chet ellarda yurganimizda, siz qayerdانسiz, deb so'rashsa, faxr bilan, O'zbekistondanmiz, biz o'zbek o'g'lonlarimiz, deymiz-da, axir!

Ma'mura
MADRAHIMOVA.

SAHIFALARDA



**MEHRGA
ZOR
MEHRIBONLAR**

3-BETDA

MAHALLALARDA


YUL

MAHALLALARDA

-Yodimda bor, otam juda qattiqqo'l odam edilar. Uyimizda ularning aytgani aytgan, degani degan edi. Birortamiz tayinlab ketgan yumushlarini bajarmasak, qulog'imizdan cho'zib, xivich bilan oyog'imizga savalardilar. Mana, kam bo'lganimiz yo'q. Sakkiz nafar farzandning bari hayotida o'z o'rnini topdik...

4-BETDA

**«SIR SAQLASHNI
YAXSHI
KO'RAMAN»**



8-BETDA

YULDUZ

Yulduzxon Hamroyeva ham bor. Senator, bosh vazir o'rinbosari, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Svetlana Inomova uning ko'ksiga «Shuhrat» medali taqib qo'ydi. Minbarga ko'tarilgan Yulduzxon, o'ziga bildirilgan yuksak ishonchni oqlashga, shaxmat bo'yicha yanada yuqori natijalarga erishishga so'z berdi.

Qolgan gapni bor-yo'g'i 16 yoshni qoralagan bo'lsa-da, shaxmat bo'yicha yetti karra O'zbekiston chempioni bo'lishga ulgurgan, dunyo miqyosidagi ko'plab musobaqalarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab qaytgan Yulduzxonning o'zidan eshitaylik:

- Men Jizzax viloyati, 22-sonli Abu Rayhon Beruniy nomli iqtidorli bolalar maktabining 11-sinfida a'lo baholarga o'qiyman. Algebra, ingliz tili, fizika, kimyo fanlariga juda qiziqaman.

- Aniq fanlarga bo'lgan qiziqishingiz bevosita shaxmat bilan bog'liq bo'lsa kerak?

- Bu fanlarda ham shaxmatdagi kabi

Shuhratiga shuhrat qo'shilsin

ko'proq «bosh qotirishga» to'g'ri keladi-da.

Dadam ham shaxmat bo'yicha oliy toifali hakam.

Bolalar va o'smirlar sport maktabida shaxmat bo'yicha murabbiylik qiladigan dadajonim mening ham ilk murabbiyim bo'ladilar. Shaxmat o'ynab, shu paytgacha qo'lga kiritgan yutuqlarimda ularning o'rni beqiyos. Fursatdan foydalanib, ota-onamga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

- Yulduzxon, yetti karra O'zbekiston chempioni, Osiyo birinchiligi g'olibi bo'lish uchun ancha-muncha «ter to'kishga» to'g'ri kelgandir?

- Albatta, hech bir yutuqqa osonlikcha erishib bo'lmaydi. Yana, Fransiyaning Belfort shahrida o'tkazilgan Jahon birinchiligi musobaqalarida faxrli 3-o'rinni egallab, bronza medalini qo'lga kiritganman. Maqtanayapti demang-u, bunday yuqori natijaga haligacha o'zbekistonlik hech bir ayol erishmagan ekan.

- Endi kelajakdagi orzularingiz bilan o'rtoqlashsangiz...

- Kelajakda mahoratimni yanada oshirib, yurtimizga sharaf keltirishda davom etaman. Jahon tanigan shaxmatchilarimiz Rustam Qosimjonov, Garri Kasparov, Anatoliy Karpovlar qatoridan o'rin olishga harakat qilaman...

Yaqinda Osiyo chempionati musobaqasida qatnashish uchun Eronga jo'nab ketayotgan Yulduzxonga biz ham ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.



Aziz bolajonlar! Kuni kecha Qomusimizning 13 yilligi bayramini keng tantana qildik. Bayram arafasida o'zlarining tadbirkorlik va ishbilarmonlik fazilatlarini namoyon qilayotganlarga yurtimizning orden-medallari topshirildi.

Ularning orasida tengdoshingiz, FIDE sport ustasi,

YUTUG'IM - SHOGIRDLARIMNIKI!

Qarshi shahri Karate Federatsiyasi murabbiysi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi, mamlakat terma jamoasi a'zosi, 2- Dan qora belbog' sohibi, jahon chempionati sovrindori va Osiyo chempioni Sofiya Kaspo'latova... Tanishtiruvdan ham anglagan bo'lsangiz kerak. Yosh bo'lsa-da, sportning uzun va mashaqqatli yo'lini bosib qo'ygan Sofiya ham taqdirlanganlar orasida bor edi.

- Toshkentga yetib keldim hamki shogirdlarimning yuz-ko'zlaridagi quvonch hamon ko'z oldimdan nari ketmayapti. Menga «Shuhrat» medali berilganini eshitgan shogirdlarimning quvonchini bir ko'rsangiz edi! Qolaversa, shu paytgacha sport sohasida nimagaki erishgan bo'lsam - jajji shogirdlarim tufaylidir. Ayniqsa, 5-6 yoshli bolajonlar bilan mashq ketaman. Ulardagi

olamiga ancha kechroq, ketaman. Ammo, bugun biriman, deb g'urur bilan murabbiyim, 4- Dan qora behad minnatdorman. Ustoz «Men ham ulardek murabbiy chempionlikka

Bolalikda astoydil qilingan bo'larkan. Hozir o'zim ham ustozman. Sport orqali bo'ldim. Istiqlolim bergan to'la faxr. Shogirdlarimga ham «2006-yil Qatarda o'tadigan bir oltin medalni tuhfa etaman».

Kaspo'latovanning orzulari behad. Yurtimiz sha'nini ham o'zi ham shogirdlari ulug'laydi. Bu yo'lda sportchilarimizga omad yor bo'lsin.

Sofiyaning yurtimizning yuksak mukofoti bilan chin qalbdan tabriklab, niyatlari ijobatini tilab qoldik.



qilsam, bolaligim yodimga tushib, zavqlanib intilishni, g'ayrat va shijoatni ko'rib, sport 12 yoshimdan kirib kelganligimga afsuslanib yurtimizdagi eng baxtli sportchilardan ayt olaman. Buning uchun birinchi belbog' sohibi Alisher aka Sodiqovdan mehrini, taftini his qilgan kezlarimda, bo'lib, bolalarga mehr qo'yaman. Ularni tayyorlayman», deya niyat qilgandim. beg'ubor va samimiy niyat ijobat yuzlab umidli sportchi yoshlarga dunyoning deyarli barcha davlatlarida imkoniyat va imtiyozlardan ko'ksim ana shunday omadlar tilayman...

Osiyo o'yinlarida ham yurtimizga yana

Ko'ksiga «Shuhrat» medali yarashib turgan Sofiya

Oydin ESONALIYEVA.

YARMIGA «TONG YULDUZI»,
YARMIGA «GULXAN»

Sinfimiz «Axborot» guruhi o'quv yilining birinchi haftasidan o'qish boshlagandi. Bu guruh o'quvchilarining vazifasi har bir mashg'ulotimizda navbatma-navbat bilan ma'ruza tayyorlashdan iborat. Men ham ana shu guruhga a'zoman. Biz axborotlarni tahlil qilib, mazmun-mohiyatini sodda, ravon tilda do'stlarimizga yetkazamiz. Shu tariqa sinfdoshlarimizni yurtimizning iqtisodiy, madaniy va sport sohasidagi yutuqlaridan tortib, yangi chop etilgan kitoblar, ilm-fan yangiliklaridan, dehqonlar va chorvadorlar erishgan yutuqlargacha xabardor qilmoqdamiz. Ma'ruzamizga kirmay qolgan yangiliklarni esa tinglovchilarning o'zlari qo'shimcha qiladilar. Bir mashg'ulotda men Yaponiyada yaratilgan «Elektromobil» haqida gapirib berdim. Rasmini chizib, o'rtoqlarimga ko'rsatdim. Soatiga 250 kilometr tezlik bilan benzinsiz yuradigan bu mashinaga sinfdoshlarim ham qoyil qolishdi. Axborotlarimizni tinglashga boshqa sinf o'quvchilari ham qiziqib qolishdi. Dunyo xabarlarini va yurtimiz yangiliklariga oid to'plagan ma'lumotlarimizga qiziquvchilar soni kundan-kun ortib bormoqda. Shuning uchun bu ma'lumotlarni yangi yildan boshlab maktab radiosi orqali eshittirishimizni taklif etishdi. Shuning uchun kirib kelayotgan yangi yilimizni intizorlik bilan kutaymiz. Ustozimiz Ozoda opa ishlarimizni kuzatib, to'plagan axborotlarimizning qamrovi va sifatiga qarab baho qo'yadilar. 1-, 2-o'rinlarni olgan o'quvchilar alohida rag'batlantiriladi ham. Guruhimiz faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida ikki guruhga bo'linib, 2006-yil uchun «Tong yulduzi» gazetasiga hamda «Gulxan» jurnaliga obuna bo'ldik.

Sardor SHAROPOV,

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
116- maktabning 4-«V» sinf o'quvchisi.

XUMORAGA

Xumor ko'zlaring hargiz qayg'udan nam bo'lmasin, Umring yo'li uzun bo'lsin, chinordan kam bo'lmasin. Mag'rur boshing umr bo'yi alamdanda xam bo'lmasin. Alloh o'zi har ishingda panoh bo'lsin, qo'llasin. Razolat-u gumrohliklar yo'lingda g'ov bo'lmasin, Abjir bo'lg'in, hayot chigal, do'stlaring yov bo'lmasin. Gar pastkashlar tana qilsa, qalbing olov bo'lmasin, Aytar senga so'nggi so'zim Alloh baxtga yo'llasin.

Xumora RAHMATULLAYEVA, o'quvchi.

Tengdoshlaring ijodi

ONA YURTIM

Ona yurtim, jamolingni kuyga solay, Madhing kuylab, shoir o'g'ling bo'lib qolay. Tuprog'ing har qarichin muqaddas bilay, Toledan senga tinchlik, omonlik tilay. Onam aytgan allalarda borsan, Vatanim, Har dilbanding qadamida yorsan, Vatanim. Buyuk allomalarga oltin beshiksan, Mening O'zbekistonim - sen jonu tanim.

Muhammadosxon NABIJONOV,

Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi
1-ixtisoslashtirilgan litsey-internat o'quvchisi.

YULDUZLAR

Qalbmimdagi orzular kabi Yuksakdarsiz - xuv, osmon qadar. Mening porloq kelajagimni, Siz yoritib, yorqin yulduzlar. Osmon yo'li yuksak va olis, Unga boqib kuzatdim zimdan. Bilsang, o'zing eng yuksak manzil, Mening jajji tasavvurimda. Orzularim kabi sanoqsiz, Miltiraysiz tunning qa'ridan. Peshonamda yorug' yulduzim, Sen yuksaksan unda baridan.

Maftuna ESHONQULOVA,

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
26 - maktabning 4 - «V» sinf o'quvchisi.



«Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'uloti borardi. «Keyingi mashg'ulotimizda biror yerga mehmonga borsak, nima deysizlar?» deya kiritgan taklifimni bolajonlar bajon-u dil qabul qilishdi. O'zaro maslahatlashib, poytaxtimizdagi 22 - sonli «Mehribonlik uyi» sari yo'l oldik. Yosh qalamkashlarimiz u yerda ko'rgan, eshitganlarini o'z qo'llari bilan qog'ozga tushirishga harakat qilishdi. Ularning taassurotlarini Siz ham bir o'qib ko'ring-a.

Feruza JALILOVA.

MEHRGA ZOR MEHRIBONLAR

To'garagimiz mashg'ulotlariga doimo biror bir mehmon taklif qilardik. Bu safar esa o'zimiz mehmonga bordik. To'g'risi, avvallari «Mehribonlik uyi»ning bolalari haqida boshqacharoq tasavvurda edim. Safarimiz ular haqidagi fikrlarimni mutlaqo o'zgartirib yubordi. Eng quvontirgani, darvozadan kirib borishimiz bilan rus millatiga mansub o'g'il-qizlarning qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, bizga sof o'zbek tilida salom berib kutib olishlari bo'ldi. Majlislar zalida bo'lib o'tgan do'stona suhbat davomida ular bilan yanada yaqinroq tanishib oldik. Hammalari iste'dodli, aqlli va xushmuomala bolalar ekanlar. Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Nina Ivanovnaning sof o'zbek tilidagi hikoyasidan mazkur maskanning tarixi va buguni haqida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'ldik. Bu yerda ahil, katta bir oila bo'lib yashayotgan bolalar-u kattalarning qiziqishlari, sevimli mashg'ulotlari va muammolariga sherik bo'ldik.

- Xalq ta'limi vazirligiga qarashli mazkur «Mehribonlik uyi»miz 1942-yilda Antonina Pavlovna Xlebushkina

tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, bu yerda 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanishadi, -deya so'z boshladilar
N i n a



Ivanovna. -Avvallari bizning kattakon avtobusimiz bo'lardi. Dam olish kunlari barcha tarbiyalanuvchilarimiz bilan O'rikzordagi dala-hovlimizga otlanardik. U yerda kattagina bog'imiz, polizimiz, molxonamiz bo'lardi. O'g'il bolalarimiz ekin-tikin, chopish va sug'orish ishlari bilan band bo'lishsa, qizlarimiz pishib yetilgan meva va poliz mahsulotlarini terib olishardi.

Tovuq va kurkadan tortib, qo'y va cho'chqalargacha parvarishlardik. Bir so'z bilan aytganda, dala-hovlimizda banandan tashqari hamma narsa yetishtirardik. 1999-yilda bizga noma'lum bo'lgan sabablarga ko'ra

«Taraqqiyot» fondi tomonidan olib qo'yildi. Hozir bittagina «Damas»imiz bor. Unga bor-yo'g'i 7 nafar bola sig'adi, xolos. 7 kishining mehnati qayda-yu, 100 bolaning mehnati qayda? Shuning uchun ham bog'imiz qarovsiz holga tushib

qolgan. Supur-sidir ishlari bilangina o'ralashib qolgan yigitlarimiz ham avvalgi, bog'da mehnat qilgan tarbiyalanuvchilarimizga nisbatan biroz nimjonroqdek, nazarimda...

Qolgan gaplarni Parlamentimiz prezidenti Muhabbat Andjimandetovadan eshitasizlar...

Biz tengi qizning qanday prezident ekanligi barchamizni qiziqitirib qo'ydi.

- Men bu «Mehribonlik uyi»da 7 yoshimdan buyon yashayman, -deya so'z boshladi Muhabbat unga ajablanib boqayotganimizni payqab. - Bolalar Parlamentini tuzganimizga esa 3 yil bo'ldi. Parlamentimiz 10 ta qo'mita,

yuqori va quyi palatalardan tashkil topgan bo'lib, quyi palata vakillari bolalarning o'qish va ishlaridagi kamchilik va muammolari haqida yuqori palataga hisobot beradi. Yuqori palata vakillari esa o'z navbatida ana shu muammoni bartaraf etishga harakat qilishadi. Buning uddasidan chiqa olishmasa, rahbarlardan yordam so'rashadi.

Yaqinda bolalar ta'til kunlari faqat televizor ko'rib o'tiraverishdan zerikib, qandaydir to'garaklar tashkil qilish taklifi bilan chiqishdi. Rahbarlarimiz sa'y-harakatlari bilan hozirda raqs, musiqa, bichish-tikish to'garaklari muntazam

ishlab turibdi. Nina Ivanovna uylaridan masalliqalar olib kelib, qizlarimizga shirinliklar pishirishni o'rgatayptilar. Yana, qizlar akademiyasi ham tuzganmiz. Unda ustozimiz Matluba Axunova qizlarimiz bilan davra suhbatlari olib boradilar, ularni mustaqil hayotga tayyorlaydilar.

- Qayerda tahsil olasizlar? - so'raymiz Muhabbatdan.

- Rus bolalari 79-maktabga, o'zbeklar esa 128-maktabga qatnaymiz. Eng a'lochi o'quvchilarimiz uchun «Xlebushkina» nomli stipendiya ta'sis etilgan.

- Dam olish kunlarini qanday o'tkazasizlar?

- Ko'proq sport o'yinlari o'ynaymiz. Bolalarimiz ko'plab sovrinlar olib kelishgan. O'tgan yilgi «Navro'z» bayrami biz uchun unutilmas bo'lib qoldi. Biz o'shanda «Bahoroy» spektaklini sahnalashtirgandik...

- Esimda bor, o'shanda men Axuramazde bo'lib, Navro'z bayramini yo'q qilmoqchi bo'lgandim, -deya suhbatimizga qo'shildi Muslim ismli bola.

- Men esa Mashrab rolini ijro etgandim, - dedi Jahongir ismli bola faxr bilan.

- Har oyda bir bor bayram uyushtiramiz, - davom etdi Muhabbat. - O'sha oydagi tug'ilgan kunlarni nishonlaymiz-da. Yozgi ta'til kunlarimizda «Algoritm», «Shodlik», «Yoshlik» kabi so'lim oromgohlarga jo'nab ketamiz. Yaqinda Xlebushkinaning xotira kechasini o'tkazdik...

Muhabbatning mamnuniyat bilan so'zlayotgan hikoyasini tinglar ekanman, ko'zlarining tub-tubida yashirin mungni payqadim...

Esdalik uchun olib borgan sovg'alarimizni ulashib, bolalar bilan xayrlashdik. Muhabbat bilan esa dugona tutindik, xabarlashib turishga kelishib oldik.

Uyga kelgach, ota-onamni mahkam quchoqlagancha, uinsiz yig'lardim. Ular esa yig'imning sababini tushunolmay, tinmay sog'ligimni surishtirardilar...

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,
«Avia-litsey»ning 10-«A» sinf
o'quvchisi.

«MEHRIBON OTA BO'LAMAN»

«Mehribonlik uyi»da Jahongir ismli bir bola bilan tanishib qoldim. Avvaliga men bilan suhbatlashgisi kelmadi. Uni juda yaxshi tushunib turardim, ayanchli qismatini eslashni xohlamaydi-da. Keyin esa mendagi samimiyatni ilg'adimi, suhbatimiz o'z-o'zidan qizib ketdi.

Uning aytishicha, onasi olamdan o'tgan, dadasi esa boshqa ayolga uylanib ketgan ekan. Jahongir dadasining ikkinchi oilasida o'zini ortiqchadek his qilibdi va shu yerga kelib qolibdi.

- Dadangizni sog'insangiz kerak-a?

- «Ular meni sog'inmayaptilaru, endi men ham ularni sog'inmayman» deyman-u baribir ikki ko'zim ko'chada, dadamni kutaveraman.

- Biror kishi kelib sizni «o'g'il qilib olaman» desa, rozi bo'larmidingiz?

- Bunday takliflar ham bo'lgan. Lekin men ko'nmaganman. Chunki bu yer mening o'z uyim, ustoz va tarbiyachilarimiz — ota-onam, bolalar esa — aka-opam, uka va singillarimdek bo'lib qolishgan. Ularni tashlab ketishga ko'zim qiymaydi. Chunki insonni eng yaqin kishisi tashlab ketsa, unga qanchalar og'ir bo'lishini juda yaxshi bilaman.



- Agar dadangiz olib ketishga kelsalar-chi?

- Dadam kelsalar, ketardim. Lekin bu yerga tez-tez kelib turardim.


- Ulg'aygach, kim bo'lmoqchisiz?

- Yaxshi, mehribon ota. Farzand qadriga yetadigan, uni yig'latib, bemehrlarcha tashlab ketmaydigan OTA bo'lmoqchiman.

- Tengdoshlaringizga tilaklaringiz.

- Eng katta tilagim — bizning kunimiz boshingizga tushmasin!

Durdonabegim QODIROVA,
Toshkentdagi 129 - maktab
o'quvchisi.



«BIRI KAM DUNYO»

Bu naqlning nechog'li to'g'riligiga «Mehribonlik uyi»da tanishib qolgan Muslim ismli bola bilan qurgan suhbatimiz chog'ida yana bir bor amin bo'ldim. Taqdir taqozosi bilan bu yerga kelib qolgan Muslimni nafaqat tengdoshlari, balki ustozlari ham juda hurmat qilisharkan. Sababi, u juda odobli, kichiklarga mehribon, mehnatsevar bola ekan. Sportni, musiqani sevar, ayniqsa, futbol jon-u dili ekan. Ustozi Shukrullo Akbarovdan pianino chalishni o'rganar, mazkur dargohda uyushtiriladigan tadbir yoki tantanalarda rollar ijro etarkan. Ulg'aygach, yurist yoki diplomat bo'lib, onasi va ikki singlisiga tirgak bo'lish orzusida hozirdanoq puxta bilim olayotgan tengdoshimning hayotdagi shiori — doimo yaxshi inson bo'lish ekan.

Bu yerdagi bolalar bilan muloqotda bo'lib, ularning ko'ngillari juda nozik ekanligini angladim. Ana shu nozik qalblar darz ketmasin degan niyat bilan uyga qaytdim.

INOYATXON.

Ikrom 10-sinf o'quvchisi edi. Bir so'zli, jamoat ishlarida faol va shu bilan birga sho'x-shaddotgina bola bo'lib, orzulari bir olam, kelajakda yetuk bankir, o'z kasbining ustasi bo'lishni istardi...

Bir kuni o'rtoqlari undan dadasining mashinasini olib chiqishni so'rashdi. Ikromning ham sho'xligi tutdimi yoki maqtangisi keldimi, uyda hech kim yo'qligidan foydalanib mashinani haydab chiqdi. Mashinani ehtiyotkorlik bilan boshqarib borayotgan Ikrom do'stlarining qistovi bilan tezlikni oshirdi. Shu payt to'satdan yo'l o'rtasida bir bolakay paydo bo'ldi. Uni urib yubormaslik uchun Ikrom rulni tezda chapga burdi... Hech kim jarohat olmagan bo'lsa-da, mashina juda qattiq shikastlangan edi. Ikrom sarosimada, o'rtoqlarining daldasi qulog'iga kirmaydi. Chunki dadasining fe'lini yaxshi biladi, juda qattiqqo'l odam. Xayolida birgina savol charx uradi: «Endi dadamga nima deyman? Mashinani ko'rsalar meni o'ldiradilar-ku?...» Ko'z o'ngidan otasining qahrli nigohi nari ketmasdi. Nima qilayotganini o'zi ham idrok etolmaydigan holatga tushib qolgan Ikrom mashinani joyiga qo'yib, qorong'u xonaga kirib ketdi. ...Va zulmatda o'z hayotiga nuqta qo'ydi...

Biz bu hayotiy voqeani bejiz so'zlaganimiz yo'q. Sodir bo'lgan ayanchli holatda kim aybdor ekanligi haqida sizlar bilan fikrlashish niyatidamiz. Ko'pchiliginiz, Ikromning o'zi-da, shu arzimagan ish uchun ham o'zini o'ldiradimi, deyayotgandirsiz? Xulosa chiqarishga biroz shoshilmang. Bizningcha, dadasining ham aybi bor. U o'ta qattiqqo'l va serjahl odam bo'lib, arzigon-arzimagan sabab uchun farzandlarini qattiq jazolarkan. Otaning beayov kaltaklaridan yuragini oldirib qo'ygan Ikrom yoshlik qilib mana shu noto'g'ri yo'lni tanlagan bo'lsa, ne ajab?..

Xo'sh, siz-chi aziz ota-onalar, bu borada qanday fikrdasiz? Farzandlaringizni qanday tarbiyalaysiz? Ularni urasizmi?

Ana shunday savollar bilan ayrim ota-onalarimizga murojaat qildik:

Boshqa xalqlarda qanday bilmadim-u, lekin bizning xalqimiz juda bolajon. Boyliklari hisobini farzandlari bilan o'lchashi ham bejiz emas. «O'nta bo'lsa o'rni, qirqta bo'lsa qiligi» degan naql faqat bizgagina mosdek. Lekin yana bir, «Farzand aziz, odobi undan-da aziz» degan naql ham borki, ota-onalarimiz unga qattiq amal qiladilar. Farzandi bir nafar bo'ladimi, o'n nafarmi, ular tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraydilar. Lekin ayrim ota-onalarimiz tarbiyadagi qattiqqo'llikni biroz oshirib ham yuborishadi, nazarimizda.

19-MODDA



Ota-ona yoki har qanday boshqa shaxs tomonidan haqoratlanish, qo'pol muomalada bo'lishdan himoyalash huquqiga egasan.

Bolalar Konvensiyasidan.

**Muparrax MAVLONOVA,
4 nafar farzandning onasi:**

-To'ng'ich farzandim hikoyangiz qahramoni bilan tengdosh. Menimcha, bosh aybdor – bolani rulga o'tkazgan, unga mashina haydashni o'rgatgan otasining o'zi. Ikrom ham aybsiz emas, irodasizlik qilib, yosh joniga jabr qilibdi. Nima bo'lganda ham ota-onasining fikrini kutishi kerak edi.

Farzandlarim haqida gapiradigan bo'lsam, ularning ham sho'xliklari o'zlariga yetguncha. Gohida haddan ziyod oshirib yuborishadi. Shunday kezlarda qattiq urishishimiz, biror sevimli mashg'ulotini taqiqlab, jazolashimiz mumkin. Lekin men ham, dadasini ham hecham urmaymiz. Bo'sh vaqlarini to'g'ri taqsimlab, mehnatga o'rgatamiz. Kattarog'lari bilan bamaslahat ish qilishga


G'iyosova Aziza Abdullayevna, Uchtepa tuman Xotin-qizlar qo'mitasi raisi:



-Afsuski, yuqoridagi kabi noxush holatlar hayotda oz bo'lsa-da, uchrab turadi. Menimcha, bu oilada tarbiya juda qattiq bo'lgan. Chunki farzand otadan oladigan jazodan ko'ra o'limni afzal ko'rgan. To'g'ri, kezi kelganda qattiqqo'llik ham kerak, lekin bu darajada emas. Ota-ona farzandlari bilan do'stona munosabatda bo'lsagina, ularning ichki olamidani, sirlaridan boxabar bo'lishlari mumkin.

Bolalarni urib tarbiyalashga kelsak, men bu usulga mutlaqo qarshiman. Farzand hech bir ota-onaning shaxsiy mulki emas, u ham individual, mukammal bir shaxs. Demak, uning ham o'z mustaqil fikri, o'y-qarashlari bor. Kezi kelganda ularni diqqat bilan tinglab, o'rtoqlashsak, foydadan holi bo'lmaydi.

Siz nima deysiz?



**Qahramon ISMOILOV,
3 nafar farzandning otasi:**

-Yoshlar tarbiyasida eng avvalo poydevorning mustahkamligiga ahamiyat berishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu fojiaoning sababchisi Ikromning otasi deb bilaman. Menimcha, farzandlarimiz bizdan qo'rqib emas, hurmatlab yashashsin va o'z fikrlarini dadil bayon qila oladigan insonlar bo'lib kamol topishsin.

harakat qilamiz. Shunda bola ongida, ota-onam mening fikrim bilan hisoblashishyapti, demak men ham ular bilan hamfikir bo'ladigan darajaga yetibman, deya o'ziga nisbatan qanaqadir ishonch paydo bo'ladi.

**Sobirjon ABDURAHMONOV,
6 nafar farzandning otasi:**

-Yodimda bor, otam juda qattiqqo'l odam edilar. Uyimizda ularning aytgani aytgan, degani degan edi. Birortamiz tayinlab ketgan yumushlarini bajarmasak, qulog'imizdan cho'zib, xivich bilan oyog'imizga savalardilar. Mana, kam bo'lganimiz yo'q. Sakkiz nafar farzandning bari hayotda o'z o'rnimizni topdik...

Menimcha, bola tarbiyasida kaltak ham ziyon qilmaydi.

Aziz ota-onalar, siz bu fikrlarga qanday qaraysiz. Umid qilamizki, o'z hayotiy tajribangiz, maslahat va o'g'itlaringiz bilan o'rtoqlashasiz.

**Nargiza SAYDULLAYEVA,
«Yangi Avlod» media
markazi a'zosi,
Nargiza AKBAR qizi.**

DOIRAM «BUM-BUM» ETADI...

Bolajonlar, faraz qiling, qarshingizda qizdirilgan, terisi tarang tortilgan doira turibdi. Uni albatta qo'lingizga olib, chertishni bilsangiz-bilmasangiz, gumbillatib bir chalib ko'rasiz-a?

Hikoyamiz qahramoni – poytaxtimizdagi 193-o'rta maktabning 7-sinf o'quvchisi Sherzodda ham doira chalishga bo'lgan havas xuddi shunday uyg'ongandi. Bu musiqa asbobining «taka-taka, bum»i tabiatan kamgap, og'ir-vazmin va biroz xayolparastroq bo'lgan bolakayni ohangrabodek o'ziga tortganida u bor-yo'g'i 6 yoshda edi. O'g'lidagi bu qiziqish bolalarcha o'tkinchi bir havas emasligini anglagan onasi – taniqli jurnalist Matluba Temur qizi uni Hamza nomidagi bilim yurti qoshidagi «Yosh doirachilar sinfi»ga yetaklab keldi. Dastlab gavdasiga mos mittigina doira chalishni mashq qilib yurgan Sherzod malakali ustozlaridan kuy chalish usullarini qunt bilan o'rgana bordi. Hozir esa unga bermalol katta-katta doiralarni ham ishonib topshirib qo'yishgan. U doirani shunday berilib chaladiki,

boshlaridan, yuzlaridan oqib tushayotgan reza-reza terni sezmay ham qoladi.

Keyinchalik unga taniqli doirachi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abbas aka Qosimov ustozlik qila boshlaydi. U chalib bergan kuyni tinglagan zahoti aynan shunday ohangda qayta chalib berayotgan Sherzodning zehni o'tkirligidan ustoz behad quvonardi. Doira chalishga berilib ketgan ustoz va shogirdni hecham to'xtatib bo'lmaydi, mashq qilishdan aslo charchashmaydi.

-Sherzod, sen nega aynan doira chalishga qiziqib qolding? Axir boshqa musiqa asboblari ham ko'p-ku? – so'raymiz undan.

-«Har kim o'z suygan oshini ichadi» deyishadi-ku! Menga doira sadosining sho'x va jozibadorligi ko'proq yoqadi. Ko'pincha darsda o'tirganimni ham unutib qo'yib, partamni doira qilib chalib



yuboraman. Buning uchun ba'zida o'qituvchilarimdan dakki ham eshitaman. Lekin nima qilay, doira meni o'ziga butunlay rom etgan. Hatto tushlarimda ham doiramni ko'rib chiqaman.

-Maktabdagi o'qishlar-chi? Ular bo'shashib qolmayaptimi?

-Yo'q, o'qishlarim ham yomon emas. Lekin darslarimning tezroq tugashini-yu, qo'limga sevimli doiramni olishni intiq

kutaman. Shunda hamma charchoqlarim yozilib ketgandek bo'ladi. Bir chalishga tushib ketsam bormi, qo'llarim qonab ketsa ham o'zimni to'xtatolmayman. Ustozlarim, bo'ldi Sherzod, senga ruxsat, desalar ham chalaveraman. Ustozim Abbas akadan «Dovul», «Sarboz», «Burulcha», «Qo'sh raqs», «Tantana» kabi kuylarni chalishni o'rganib oldim. Ustozim esa bu kuylarni o'zlarining ustozlari Usta Olim Komilovdan, To'ychi aka Inog'omovdan o'rgangan ekanlar. Demak, milliy musiqa va qadriyatlarimiz avlodlar avlodga o'tib kelyapti. Ularni kelajak avlodlarga yetkazish esa bizning zimmamizda ekanligini juda yaxshi bilaman...

Kelgusida Toshkent Davlat konservatoriyasiga o'qishga kirish, o'zbek san'ati dovru'g'ini chet ellarga ham yoyish, onajonisi va buvijonisini muborak «Haj» safariga olib borish orzulari bilan yashayotgan Sherzodjon buning uchun ko'p o'qishi lozimligini juda yaxshi biladi. Balki shundandir, sevimli nashri bo'lmish «Tong yulduzi» qo'lidan sira tushmaydi.

Manzura UBAYDULLAYEVA.



Men ham posbon bo'laman!

JO'NATILMAGAN MAKTUB

Ozodaning dadasi 1999-yili 16-fevralda poytaxtimizda terrorchilar tomonidan sodir etilgan qo'poruvchilik harakatlarida Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgandi. Bu judolik, onasining iztiroblari Ozodaga qattiq ta'sir qildi va xayolan dadasiga maktub yo'lladi.

Salom dadajon! Kecha Sizni yana tushimda ko'ribman. Oppoq kiyimda, kattagina anhordan suv ichayotganmishsiz...

Dadajon, sizni juda sog'indim. Oyijonim ham sog'inganlar-u, lekin bildirmaydilar. Menga sezdirmay pinhona yig'lab olganlarini ko'p ko'rganman.

Akam harbiy xizmatga ketayotganlarida, ularga ergashib rosa yig'lagandim. Oyijonim, qiz bolalar harbiyga borishmaydi,

deya harchand tushuntirmasinlar, baribir katta bo'lsam mening ham ka-a-t-ta yulduzchali shapkam bo'ladi, deb turib olgandim.

-Yulduzchali shapkani senga men olib kelaman. O'zim esa harbiy bo'lib, albatta dadamning o'chini olaman, degandilar akajonim men bilan xayrlasha turib...

Dadajon, yodingizda bordir-a, bugun mening tug'ilgan kunim, 16 bahorni qarshiladim. Hademay

maktabni tamomlab, hujjatlarimni harbiy bilim yurtiga topshirmoqchiman. Bu qarorimni oyijonim ham ma'qulladilar.

Dadajon, ishoning, men terrorchilardan siz uchun albatta qasos olaman. Lekin men o'lmayman. Yurtim uchun, oyijonim uchun, siz uchun uzoq yashayman.

Salom bilan qizingiz
OZODA.

Nigora MIRSODIQOVA
oqqa ko'chirdi.

Harbiycha alifbo

Aqli raso farzandning
Asli burchi - himoya!
Aziz yurtni avaylash,
Asrash bo'lib cho'ng qoya!

Batalyon bayrog'ini
Baland tutar botirlar!
Bo'linmaning boyligi
Bahodirlar, nodirlar!

«Diqqat! Diqqat!» deganda
Dovdirama, do'st, o'rtoq!
Darhol qo'lga qurol ol,
Dushmanni bos dadilroq!

Esankirash, dovdirash,
Er yigitga xos emas.
Epli-shudli erkaklar,
El yukini yuk demas!

Fayz, baraka ketmagay,
Farog'atda yashar jon.
Favqulodda holatda,
Faol bo'lsa har inson!

Garnizonda shaharcha,
General Bosh tarkib bor.
Gospital va gulzorlar...
Gard yuqmas zo'r tartib bor!

Harbiy isloh - zarurat,
Hayotimiz matlabi.
Harbiy, kasbiy kuch-qudrat,
Himoyaning talabi.

Ig'vogarlik, iblislik,
Ilgaridan bir illat.
Illat izin quritar,
Insonparvar, hur millat.

Jangovorlik, jasurlik,
Jangchilarga xos xislat.
Jasorat-la janggohda,
Jang qilmaslik - jinoyat!

Kichik serjant - komandir,
Kursantlarga ko'makdosh.
Kamarbasta erta-kech,
Kuyovjo'radek yo'ldosh.

Layoqatli bo'lsa kim,
Lavozimga loyiqdir.
«Labbay» deyish sardorga,
Lab-dahanga bog'liqdir.

Muqaddas burch - Vatanni,
Matonat-la asramoq!
Mustaqil yurt-jon-tanni,
Mehr-u ont-la asramoq!

Nontepkilik, nodonlik,
Narkobiznes - illatdir.
Norg'ul yigit mard bo'lar,
Nomard esa xas, garrdir.

Ona-yurt deb kun-u tun,
Osonmas safda turmoq.
Ozod, obod Vatanda,
Ogoh bo'lib, ot surmoq!

Pismaniq, pastkash panada,
Palid pastqam, kir joyda.
Pala-partish ish bo'lmas,
«Patrul» bo'lgan har joyda!

Qal'a bo'lar mustahkam,
Qo'rg'on yashar, tinch, omon.
Qurolimas, qalbini,
Qalqon qilsa qiz, o'g'lon!

Razvedkachi rostmana,
Razm solar har tomon.
Razilona rejani,
Rasvo qilar begumon!

Saflar kuchli qachonki,
Sergaklik bo'lsa mudom.
Sadoqat yalov bo'lib,
Sobit ersa intizom.

Terrorizm - tahdiddir,
Taraqqiyot, tinchlikka!
Trevoga - turtkidir,
Tezkor tayyorgarlikka!

Uzun-qisqa kun-tunlar,
Uzoq-yaqin yo'llarda.
Umid, ishonchi elning,
Udli-shudli qo'llarda!

Va'dasi chin, ahdi - ahd,
Vatansevar askarning.
Vaxtasi-yu posti tinch,
Voqif, xushyor lashkarning!

Xonavayron bo'lar xalq,
Xaloskori bo'lmasa!
Xavfu xatar, ofatdan,
Xoli, nari bo'lmasa!

Yigitboshi mard ersa,
Yigit boshi ham bo'lmas!
Yo'lda yuki qolmagay,
Yo'lin topar, kam bo'lmas!

Ziyrak turar sarhadda,
Zakovatli mard soqchi!
Zarba olar zudlikda,
Zoti past, shum ayg'oqchi!

O'ziga bek o'zbekimiz,
O'zbekning yuz-ko'zimiz!
O't-olovdan asraymiz,
O'z uyimiz o'zimiz!

G'ofil bo'lmas chin askar,
G'olibona jang qilar.
G'ayrat jo'shib qonida,
G'anim holin tang qilar!

Shartnomaviy xizmatning,
Sharoi, sharti shu:
Shartni buzmas er kishi,
Sher yuragi etmas "shuv!"

Chayir, chaqqon chin askar,
Chaynalishni ko'rmas xush.
Chaqmoq chaqnar izidan,
Chala-chulpa qilmas ish!

Alifboni o'qigan,
Uqqanlarga bir tilak:
Birlashsin harf, satrlar,
Yakdil bo'lsin til, yurak!

Iskandar RAHMON.

«- Ha, Zohidjon kallai-saharlab qayerdan kelayapsan, qo'lingda o'roq, belingda belbog' - so'radi Rustambek suv to'la chelaklarini yerga qo'yganicha sinfdosh do'stidan.

-Bobomning fermer xo'jaligidan kelayapman, yerlarini xas-xashaklardan tozaladik. Bilasanku, dalada qishin-yozin yumush tugamaydi. Kattalar qatori biz bolalarga ham ish serob, bobom hamisha yelkamga qoqib, «dalamizning kichik fermer»i deydilar, - yoshi ulug' kishilardek salmoqlab gapirardi Zohidjon.

-Rostdanmi, o'zi nega fermerlar deyishadi-a, bilasanmi?

- Albatta, katta-katta yerlarning egalari fermerlar bo'ladi-da.

Aziz bolajonlar! Sinfdosh do'stlarning o'zaro suhbatini tinglab, biz ham Zohidjonning fikrlarini to'ldirishga qaror qildik».

FERMERLAR - KIMLAR EKAN?



DILBAR OPANING DILBANDLARI

27 yildan buyon ustozlik kasbini ardoqlab kelayotgan Dilbar opa Ahmedova ayni damda Navoiy viloyatining Karmana tumani metodika xonasining mudirasi. Opa minglab shogirdlarini haqli ravishda dilbandlarim, deb ataydi. Chunki ularning ko'pchiligi Dilbar Ahmedovaga havas qilib, o'qituvchilik kasbini egallashgan. Jamoliddin Bobonazarov, Dilnavoz Fayziyeva, Dilafruz Fayziyevalar bugungi kunda opa singari matematika fanini ardoqlab, shogirdlariga saboq berishmoqda.

-Bolalarning ko'ngli juda nozik bo'ladi, sal narsaga darz ketishi mumkin. Shuning uchun ham muallim bola bilan bola bo'lib gaplasha olishi, uning dilidagini nigohlaridan ang'ay bilishi lozim. Shundagina murg'ak qalb ustoziga talpinadi. O'qituvchi va o'quvchi orasida

ko'rinmas devor hosil bo'lmaydi. Bolajonlar maktabga o'z uylariga talpingani singari oshiqib kelishadi. O'quvchilariga iliq mehrini berolgan muallim fan bog'ining haqiqiy bog'boni bo'la oladi, - deydi Dilbar opa.

Mavjud to'garaklarda biror muammo bo'ladimi yoki fan xonalaridagi jihozlar, qo'llanmalar borasida ayrim kamchiliklar bormi, ularni bartaraf qilish ishlariga opaning o'zi bosh-qosh. Ularning yoshlarnikidek g'ayrat u shijoatiga havas qilsak arziydi.



Ona yurtimizning bepoyon dalalarida paxta, g'alla, meva-sabzavot, pilla kabi o'nlab qishloq xo'jalik mahsulotlaridan yuqori hosil olish, farovonligimizni yanada oshirish demakdir. Buning uchun ushbu sohadagi iqtisodiy islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish lozim edi. Shu bois ham Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrda «2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 476- sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra past rentabilli shirkat xo'jaliklari negizida tanlov asosida fermer xo'jaligini tashkil etish va ularga shart-sharoitlar yaratib berish ko'zda tutilgan. Ya'ni, mahsulot yetishtirishda ziyon ko'rib, daromadlari harajatlarini qoplay olmagan shirkat xo'jaliklari past rentabilli deyiladi. Qishloq xo'jaligini yaxshi tushunadigan, yerning tilini bilib, tegishli bilim va tajribaga ega bo'lgan kishilar fermer bo'la oladilar. Fermer xo'jaliklarida mehnat qilishni istovchilar o'z arizalariga ko'ra ishga qabul qilinadilar.

Yer Kodeksining 53-moddasi, 4-qismi talablariga asosan fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari 50 yilgacha bo'lgan, lekin 30 yildan kam bo'lmagan muddatga tanlov asosida ijara shartnomasi bo'yicha beriladi. Yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi viloyat hokimi tomonidan tegishli qaror qabul qilingandan so'ng tuman hokimi va fermer xo'jaligi boshlig'i

tomonidan imzolalanadi. Bu yerlar yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, tugatilayotgan shirkat xo'jaliklarining yer maydonlari hisobidan ajratiladi. Yerlarning hosildorligi esa Viloyat Davlat yer kadastr tizimiga kiruvchi viloyat kadastr xizmati tomonidan aniqlanib, nazorat qilinadi. 2005-yilda O'zbekistonimizda jami yetishtirilgan paxta va g'allaning 50 foizidan ziyodini fermer xo'jaliklar yetkazib berishdi. Shu bois ham yurtboshimiz fermer xo'jaliklari faoliyatiga yanada ko'proq e'tibor berishni ta'kidlamodalar. Qahramonimiz Zohidjonning bobosi ham yuqori rentabilli fermer xo'jaligining boshlig'i. Yerni o'z mulkiday ardoqlaydigan asl dehqonlar xilidan. Ularning paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan 40 gektar yerlari bor. Fermer xo'jaligi dalalarida hamma birdek ahil va inoq mehnat qilishadi. Shu bois ham paxtadan gektariga 35 sentnerdan, g'alladan esa 48 sentnerdan hosil olishdi. Shartnomada belgilangan planlarni bajarganlaridan so'ng, oshiqcha qancha ko'p hosil olishsa uning daromadi fermer xo'jaligi a'zolarning ehtiyojlariga ajratiladi. Garchi Zohidjon maktab o'quvchisi bo'lsa ham darsdan so'ng dalaga chiqishni kanda qilmaydi. Maktabni tugatganidan so'ng u ham Holiqul bobosidek fermer bo'lmoqchi. Zero, yerni, elni e'zozlagan aslo kam bo'lmaydi.

Jamila ERDONOVA.



OLIMPIADA ZAHIRASI MAKTABI

Sarlavhani o'qib, bu qanday maktab ekan, deya ajablanayotgandirsiz? Keling, yaxshisi ushbu maktab faoliyati haqida sizlarga batafsilroq so'zlab beray:

Bu ta'lim maskani dastlab Navoiy viloyatidagi Furqat nomli 15-maktabda tashkil etilib, unga 7-10-sinflar orasidan eng iqtidorli o'quvchilar tanlov asosida qabul qilindi. «Olimpiada zahirasi maktabi»da tahsil olayotgan 107 nafar o'quvchining bari faqat «a'lo» baholarga o'qishadi. Ularning bilimlari har oyda bir marotaba Nizom asosida belgilangan TEST sinovlaridan o'tkaziladi. Bu maktab o'quvchilari yaqinda bo'lib o'tgan I-bosqich tuman fan olimpiadasi g'oliblari viloyatning II-bosqich fan olimpiadasida ham muvaffaqiyatli ishtirok etishdi. Ayniqsa, Jahongir Ibragimov, Shahnoza Zohidova kabi o'quvchilarning yutuqlaridan ustozlari mamnun. Ushbu ta'lim maskanida Doniyor Jo'rayev, Zamira Abdullayeva, Gulgina Yuvakayeva singari mahoratli o'qituvchilarning borligi o'quvchilarning baxti bo'lsa kerak. Bunday o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlovchi maktab rahbarining ham mahoratiga tahsinlar aytgung keladi. Balki shuning uchundir bu o'quv maskanining tajribasi tumandagi 1-, 2-, 3-, 9-, 10- va Navoiy shahridagi 11-maktablarda ham keng yoyildi.

Bunday maktablar soni yanada ko'payishini istardik.

Mohinur HAYDAROVA.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Bir kuni azon bilan bog'liq bir voqea bo'lib o'tdi. Vaqt peshinga yaqinlashib qolgan, azon aytaman deb tashqariga chiqsam Ilashvoy shogirdi bilan kelib qoldi. Zarur gapi borgan o'xshardi. Gap boshlab qo'ysa, kechikishimni o'ylab:

- Uzi, azon payti bo'b qoldi, azon aytib, peshinni o'qib olay, keyin bafurja gaplashamiz, - dedim.

- E, dedi Ilashvoy iddao bilan, - azon chaqirganingizdan keyin boshqalaram kelishsaykan, kelishmaydi-yu...

Ilashvoyning o'ziyam, shogirdiyam namoz o'qimasidi. Shunga qaramay menga bo'lishgani yoqib ketdi:

- Kelishadi, ular kelmasa, musulmon jinlar kelishadi. O'h-ho-o'... azonni eshitishadi-yu bir-birini yur-yur qilishib, bir zumda shamoldek uchib kelishadi. Orqamga tizilib olishadi. Men ularga imom bo'laman. Ular menga iqtido qilishadi. Shunday qilib, qarabsizki, jamoa bo'lamiz.

Bu gaplardan har ikkovining og'zi lang ochilib qoldi. Azonni aytib, duosini o'qib, bundoq qaragam, Ilashvoy shogirdi bilan xuddi birov quvgandek shipillab ketib boryapti.

- Ilashvoy, ha, - dedim hayron bo'lib, - birov chaqirib qoldimi?

- Namozingizni o'qib bo'ling, keyin kelamiz, - dedi. Nimagadir Ilashvoyning ovozi xavotirli chiqdi.

Shu kuni Ilashvoy kelmadi. Bir haftadan keyin ko'rinish beruvdi, eslatdim:

- O'sha kuni kelaman deb kelmadingiz, yo mendan xafa bo'ldingizmi?

- E, aka, sekin aytasizmi, o'sha kundan berisiga o'zimga kelolganim yo'q, shogirdim bo'lsa, ikkinchi bu tarafdagi qadam bosmaydigan bo'ldi. Ilashvoy gapiryapti-yu ko'zlari o'zidan-o'zi alang-jalang bo'lib ketyapti. - Kemasang, kema dedim shogirdimga. Axir hammani joni o'ziga shirin-da, aka!

- Nima bo'ldi o'zi, tinchlikmi, Ilashvoy?-deyman shubhaga tushib.

- O'sha kuni jinlaringiz g'uvillab

ustimizdan o'tib qolishsa bo'ladimi?

Shogirdim ikkovimiz bir-birimizga qarab, baqa bo'b qopmiz, deng...

- Yo'g'-e, ko'rdinglarmi, - dedim shoshib, - jinlarni-ya?

- Eee... yaxshiyam ko'rmadik, - deya boshini sarak-sarak qildi Ilashvoy. - Ko'rsak bormi, taxta bo'b qolarmidik. Aytganingizdek g'uvillab shamoldek uchib kelishdi-yu uyingiz tarafga o'tib ketishdi. O'lay agar, haliyam qulog'im tagida «g'uvvv...» degan ovozi turibdi, aka.

Ilashvoy juda bir katta hurmatli odamning ro'parasida o'tirgandek, bir yerga qarab, bir chetga qarab gapirardi. - Mahalladagi chollarga ayt sam, Xudoyimga yaqin kishikan,

ziyosatiga boramiz, deyishdi. Keb qolishsa, hayron bo'lib yurmang tag'in. Tomingizni adam ikkovimiz yopib beradigan bo'ldik, bir tiyiningiz kerakmas, duo qilsayz bo'ldi, aka...


Ilashvoy bir yerda o'tiradigan odammas. Usta-da. Qo'ldan kelmaydigan ish yo'q. Radio, televizorlarniyam tuzatib ketaveradi, baraka topkur. Elektir o'tkazish ishlariyam qo'ldan keladi. Tom yopish bo'lsa, qo'g'irchoq qilib qo'yadi. Bugunini o'ylamaydi. Ertasini o'ylaydi. Kim qurgan-falonchi qurgan, baraka topsin, qo'li dard ko'rmasin, degan gap kerak unga. Shunga xaridori ko'p. Shanba, yakshanba kunlari dala-bog'imizni aylanib, hammaning ko'nglini olib chiqmasa ko'ngli joyiga tushmaydi. Shunday qilib, mening jinlar bilan

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



Erkin MALIKOV



birgalashib namoz o'qishim dala-bog'imizga yoyilib ketdi. Bir kuni Ilashvoyning mahallasidan bir yigit darmondan ketib, shilqillab qolgan bolasini ko'tarib kelib qoldi.

- Sizga ixlos qildim, aka, o'qib qo'ysangiz...

Hah bechora, soddagina-ya! Ixlos qo'ygan odamini qarang. Yarim yalong'och, hamma yog'im loy. Notanish yigit oldida ja noqulay ahvolda qoldim. Men namoz o'qirdim-u, hali bunaqa «kuf-suf» tomonlariga o'tmagan edim. Dabdurustdan nima deyishimni bilmay qoldim. Yigit bechora javdirab ko'zimga qarab turibdi. Bolasi bo'lsa boshini shilq etib hali o'ngga, hali so'lga tashlaydi. Judayam holdan toygan. Ko'zlarini ochishgayam holi yo'q. Og'zidan so'lakayi oqib yotibdi.

- Duxtirga ko'rsatmadingizmi?-so'radim bolaning qo'lini ushlab. Xayolimda bolaning issig'i borgan o'xshagan edi. Qo'li muzdek.

- Buni duxtirlik ishi yo'q, o'qish kerak, paqat o'qish kerak, - dedi zorlanib yigit. Shunday der ekan cho'zinchoq dahani qaltirab ketdi. Ilgari ko'cha-ko'yda ko'rganmanmi yo birovga o'hshatdimmi, ishqilib qiyofasi tanish edi. Eslolmadim.

Halidan beri parishonhol chaynalib turganimni ko'rgan yigit:

- Bevaqt kelib qoldikmi deymen, o'qiydigan payitingizni ayting, yana kelovramiz, - deb qoldi.

- Ha, ha, - dedim shoshib, - bomdoddan keyin o'qisa yaxshi bo'ladi-da. Bolaning og'zidan so'lakayi oqqanini ko'rib, nimagadir novvot esimga tushgan edi. Qon bosimimning pastligi, buning ustiga loy ishlariga unnab yotganim uchun novvotning qozontagisidan obkelib qo'ygan edim. Ko'pchilik duriga ishqivoz bo'lishadi. Aslida quvvat unisidamas, bunisida. Bitta aybi-dasturxonni bezamaydi, xolos. O'sha navvotdan bir bo'lagini qog'ozga o'rab, yigitga tutqazdim:

- Qora choyni achchiqroq qilib damlang-da, novvotchoy qilib ichiring, - orqasidan qo'shib qo'ydim, - bunga dam solingan-a!

Yigit cho'ntagini kavlati. Nima qilmoqchiligini darrovda tushundim. Ha, bunaqa narsalarga mazaxo'rak bo'lmaslikni bilardim.

- Cho'ntak kavlaydigan bo'lsangiz oldimga boshqa kemang, - dedim azbaroyi qovog'imni solib.

- E, siz zo'rakansiz-ku, - dedi yigitning chiroyi ochilib. - Unda mayli, uyingizni suvog'i mendan. Nima qilib bo'lsayam shu o'g'limmi tuzatib bersangiz bo'ldi.

- Tuzatguvchi Alloh, biz so'raymiz, xolos, - dedim so'lakayi oqib yotgan bolaning yelkasini silab. - Xudo xohlasa toy bola ko'rmagandek bo'b ketadi.

- Aytganingiz kelsin.

(Davomi bor.)

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Tengdoshingiz Ra'no TURSUNBOYEVA Iqtisodiy yo'nalishdagi Respublika gimnaziyasining 4- sinfida «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'qiydi. Eng yaxshi ko'rgan fani matematika. Ra'no raqs to'garagiga qatnashadi, pianinoda binoyidek kuylar ijro etadi. Zukko qizning berilib boshqotirmalar, chaynvordlarni yechishini, o'zi ham ularni qiziqarli tarzda tuzishini ko'rib yaxshigina matematik ekanligiga amin bo'ldik. Ra'no bu boshqotirmasini «Tong yulduzi» deya nomlabdi.



- 1) Hayvon nomi.
- 2) Qizlarning ismi.
- 3) Eng xushbo'y narsa.
- 4) Oromgoh nomi.
- 5) Yirtqich hayvon.
- 6) Shahar nomi.

- 7) Qush turi.
- 8) Qir, adir.
- 9) Barmoq bezagi.
- 10) Fotima va ...
- 11) Din.

Ra'no TURSUNBOYEVA.

T						
O						
N						
G						
Y						
U						
L						
D						
U						
Z						
I						

Yaxshi qo'shiq inson qalbidagi eng go'zal his-tuyg'ularni beixtiyor uyg'otib yuboradi. O'zining diltortar qo'shiqlari bilan yosh-u keksaning qalbida birdek ana shunday nafis tuyg'ularni uyg'otib kelayotgan iste'dodli xonanda akangiz Yodgor MIRZAJONOV bugungi «Uchrashuv»imiz mehmonidirlar.

Siz bolajonlarni xonandaning ko'proq bolaligi qiziqtirishini hisobga olgan holda birinchi savolimiz bolalik xotiralari, orzulari haqida bo'ldi:

-Men bolaligimda qanday bo'lsam, hozir ham shundayman. Qaysar, erkato'y. Bolaligimdan san'atga qiziqqanman. Sababi, adam Usmonjon Mirzajonov katta hofiz bo'lganlar. Menga ulardan «yuqqan». Oyim ham mendagi intilishni doimo qo'llaganlar. To'g'ri, yuqoriroq sinflarga o'tganimda harbiy yoki

o'zlashtirganman. «4» va «5» baholarga o'qirdim. Faqat rus tilidan sal pastroq baho olardim. Geografiya, kimyo, tarixni juda yaxshi ko'rardim.

Maktabni bitirib,

San'at institutining

musiqali drama


fakultetiga hujjat topshirdim va bu

simli mikrofon bilan qo'shiq kuylayapman. Qo'shig'imda sakrab aytadigan joyi bor edi. Bir sakraganimni bilaman, mikrofonni simi uzilib ketsa bo'ladimi?! Musiqa davom etyapti, men nima qilishimni bilmayman.

Siz kutgan uchrashuv



"SIR SAQLASHNI YAXSHI KO'RAMAN"



yil o'qishni tamomladim. Endi buyog'iga faqat va faqat ijod.

-Bo'sh vaqtingizdagi eng qiziqarli mashg'ulotingiz?

-Xobbiyim - rasm chizish. Turli mashina rusumlarining rasmlarini yig'ib, ularga o'xshatib rasmini chizishga harakat qilaman.

-Qo'lingizdagi bir to'p gazetani ko'rib, respublikamizdagi chop etilayotgan

sportchi bo'lishni xohlab qolganman. Hatto karatega qatnashib, ko'k belbog' sohibi bo'lishga ham ulgurganman. Lekin o'ylab qarasam, sport men uchun emas ekan. Baribir san'atga bo'lgan intilishim ustunlik qildi. Lekin hozirgi kundagi yugur-yugurlarimning o'zi ham sport bilan shug'ullanganday bir gap. Har kunim sport.

Keyin o'ylab ko'rib, san'at yo'lini tanladim va musiqa maktabida fortopiano sohasida o'qidim. Maktabdagi turli tadbirlar mensiz o'tmasdi. Har xil shoular uyushtirib, o'zim ham boshlovchilik qilardim, ham qo'shiq aytardim. San'atga qiziqqanim bilan maktabdagi fanlarni ham yaxshi

hamma matbuot nashrlarini o'qib chiqsangiz kerak, degan qarorga keldim.

-Albatta, qo'ldan qo'ymayman. To'g'ri, ko'proq shou-biznes olamiga qiziqaman. Lekin hammasini o'qib chiqishga harakat qilaman. Bolaligimda «Tong yulduzi» («Lenin uchquni»)ga obuna bo'lardik. O'shandan gazeta-jurnal o'qishga qiziqishim kuchli.

-Yodingizda qolgan biror qiziqarli voqeani aytib bering.

-Biz xonandalar fonogrammani yoqtirmasak ham kerakli paytda ishlatishga majburiy. Bir kuni Buxorodagi konsertimda musiqa fonogrammada, o'zim esa jonli kuylashim kerak edi. Katta stadion, minglab tomoshabin. Aksiga olib simsiz mikrofonlari yo'q ekan. Uzun

Yaqinroqda turgan yordamchilarga ishora bilan tushuntirgandim, ular ham sahnaga yugurib chiqib, mikrofonni ulashga tushib ketishsa bo'ladimi...

Shu voqea hecham esimdan chiqmaydi.

-Kelgusidagi orzularingiz?

-Orzularim juda ko'p. Lekin sir saqlashni yaxshi ko'raman. Faqat bittasini aytib o'taman, nasib bo'lsa keyingi yil «Nihol» mukofotiga harakat qilib ko'rmoqchiman.

Endi prodyusseringiz Feruza Nodirovadan siz aytmagan sirlarni ham bilib olsak. Aslida tanqli jurnalist Feruza opaning prodyusserlik sohasiga qo'l urishi nafaqat sizning, balki barcha san'at-sevarlarning baxti desak, mubolag'a emas. Chunki pul topish ilinjida mashhur san'atkorlar yugurdagiga aylangan, oqibatda didsizligidan saviyasiz kuy-qo'shiqlar yaratilishiga sababchilar ko'paygandi. Feruza Nodirova esa ham kinoshunos, ham adabiyotshunos, ham san'atshunos desak mu-

bolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun ham Yodgor Mirzajonov juda tez san'at shohsupasiga ko'tarila boshladi...

-Feruza opa, Yodgor Mirzajonovning qo'shiq kuylashini ko'rgan odam juda erkato'y bo'lsa kerak, deb o'ylaydi. Shogirdingizning fe'l-atvori qanday? Erkaliklari ijod jarayonida ham seziladimi? Umuman, ular bilan qanday bog'lanib qolgansiz?

-Bittagina o'g'il bo'lgandan keyin erkato'y bo'ladi-da. Ilgari men gazetada ishlardim. San'atkorlar haqida, shou-biznes olami haqida maqolalar tayyorlardim. Navbatdagi mehmonim Yodgor Mirzajonov bo'ldi va men undagi iste'dodni, tirishqoqlikni ko'rib, uning birga ishlash haqidagi taklifiga rozi bo'ldim. To'g'ri, qaysarligi ham, erkaligi ham bor. Endi «katta o'g'lim» bo'lgandan keyin ko'taraman-da. O'zi ikkita o'g'lim bor.

Hamma Yodgorni meni katta o'g'lim deydi. Yodgorni shogirdim sifatida aytadigan bo'lsam, haqiqatda juda tirishqoq. Axir bir yilda ikkita albom, ikkita sarhisob konsert berishning o'zi bo'ladimi?

Uning ko'plab qo'shiqlari muxlislari ko'nglidan joy olgan, shuning uchun ham muxlislar talabiga ko'ra yana konsert dasturi bermoqchimiz.

Dasturning nomi ham bejiz «Sog'inganimda» deb nomlanmagan. Menimcha, muxlislari Yodgor Mirzajonovni, o'z navbatida Yodgor ham muxlis-u muxlislarni sog'ingan.

-Sevimli san'atkorning muxlislari tilaklari.

-Yosh muxlis-u muxlisalarimga tilaklarim, kelayotgan Yangi yil yangi baxt va yangi omadlar yili bo'lsin! Lablaridan kulgu, yuzlaridan tabassum arimasin! Barchangizni konsert dasturimda kutib qolaman.

Ma'suda VOHIDOVA
suhbatlashdi.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 13279

Buyurtma N: J 1856

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin
SHAYADGAROV.

Navbatchi:

Jamila
ERDONOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilibiz:

700129,

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45

OGO'H BO'LING!

Aziz bolajonlar, yurtimizda «Yong'in xavfsizligi oyligi» o'tkazilayotganidan xabaringiz bor. Shu sababdan maktablarda, bolalar bog'chalarida tashviqot va targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, joriy yilda sodir bo'lgan yong'inlarning 33 foizi bolalarning qarovsiz qoldirilishi yoki ularning ehtiyotsizligi oqibatida kelib chiqqan ekan. Oqibatda ko'plab bolalar jiddiy jarohat olishgan. Ayni kunlarda pirotexnik vositalardan jarohat olayotgan bolalar soni ham ortib boryapti.

Vaqtingizni chog' qiladigan bunday «o'yinchoqlar»ning salomatligingizga jiddiy xavf solishini, ularning yashirin yo'llar bilan olib kelinayotganini va ko'pchiligi yaroqsiz ekanligini ham bilasizmi? Uni paqillatib, nafaqat o'zingizga, balki atrofdagilarga ham ziyon yetkazishingiz mumkin. Shunday ekan, bu vositalardan uzoqroq yuring. Yong'in xavfsizligi oyligida faol ishtirok eting, uka va singillaringiz o'yinlarini nazorat qiling, agar yong'in xavfi tug'ilsa, darhol «01» raqamiga qo'ng'iroq qiling.



Dilfuza XOLMATOVA,

O'zMU jurnalistika fakultetining 2-kurs talabasi.